

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Qo'qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2024 yil

**KONFLIKTOLOGIYA VA KONFLIKTLARNI BOSHQARISH
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 –	Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 –	Ta'lim
Magistratura		
mutaxassisligi:	70110102	Pedagogika
	–	

Qo'qon– 2025

Fan/modul kodi KKB2205		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Konfliktologiya va konfliktlarni boshqarish		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni. Ushbu fan dasturi pedagogik jarayonda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlar, ularning yuzaga kelish omillari, sabablari, pedagogik konfliktlar chegarasi, tuzilishi, rivojlanish bosqichlari va darajalari, pedagogik konfliktlarning turlari, pedagogik konfliktlarni hal qilish omillari, shartlari va yo‘llarini o‘z ichiga qamrab oladi. Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak pedagoglarni pedagogik jarayonda yuzaga keladigan konfliktlar, ularning oldini olish yo‘llari bilan tanishtirish. Fanning vazifasi – bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik konfliktlarning nazariy asoslariga oid bilimlar bilan qurollantirish; pedagogik konfliktlarning oldini olish uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish; pedagogik konfliktlarni hal etish strategiya va usullarini qo‘llay olish malakasini hosil qilish. Fanning asosiy manbalari: 1. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent. 2. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 3. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. Saylanma. –T.: O‘qituvchi,1997. Fanning dasturi Qozon federal universiteti dasturi asosida tayyorlangan. O‘qituvchi va talabalarning samarali birgalikdagi faoliyati. Amaliy topshiriqlarni amalga oshirish maqsad va vazifalarni, ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan pedagogik muloqot mazmunini aniqlash, shaxsiy yondashuv asosida turli shakllarda pedagogik jarayon sub'ektlarining o'zaro ta'sirini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, shuningdek, o'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish, o‘qituvchining kommunikativ ko‘nikmalarini, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodikasini o‘zlashtirish uchun asos bo‘ladi. pedagogik o'zaro ta'sirda konstruktiv nizolarni hal qilish ko'nikmalari o'rganiladi. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:				

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi –

O'qituvchining pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni malakali tashkil eta olishi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Pedagogik o'zaro ta'siri pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri va ta'limning ilmiy tamoyilidir. Nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi orqali erishgan yutuqlari yoki ta'lim sifatini yaxshilashga talabalariga nafaqat o'quv va tarbiyaviy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini ta'minlash to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi, o'quv vazifalari majmuasini o'z ichiga oladi, ularning izchil va sifatli bajarilishi fanning asosiy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Ushbu fanni o'qitayotgan Qozon federal universiteti Top 300 universitetlar standartlariga ega.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Kursni to'liqroq o'zlashtirish uchun mahalliy va xorijiy mualliflarning aloqa bo'yicha klassik va zamonaviy asarlariga alohida e'tibor berish, mustaqil ish uchun topshiriqlarni bajarish va yakuniy test topshiriqlarini bajarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tavsiya etiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. Pedagogik konfliktologiya fanining nazariy asoslari

1-mavzu. Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, ob'yekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi.

Konfliktologiya yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri ekanligi. Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, ob'yekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi haqida ma'lumot berish.

Pedagogik konfliktologiya fani ixtisoslik fani hisoblanib, uning rivojlanishi qator pedagogik, xususan, pedagogika, pedagogika nazariyasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, psixologik konfliktologiya, pedagogika tarixi, qiyosiy pedagogika, shuningdek, anatomiya va fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda o'rganiladi va shu fanlar bilan birgalikda rivojlanadi.

2-mavzu. Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar.

Konflikt har bir inson hayotining ajralmas tarkibi hisoblanadi. Inson ilk bolalik davridanoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan tarzda to'qnash keladi. Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida "konfliktogen"lar juda muhim rol o'ynaydi. Konfliktogen – konfliktga imkon

beruvchi, konflikt uchun sharoit yaratuvchi sifatida tarjima qilinadi. Konfliktlar murakkablashib boradi, shunga yarasha odamlarning hayot tajribasi ham bosiqlik, mulohazakorlik, jiddiylik tomon o'zgarib boradi. Chunki inson ulg'aygan sari o'z his-tuyg'ularini jilovlashga, ularni ma'lum tartibga solishga, ularni boshqarishga o'rganadi.

2-Modul. Konflikt va uning rivojlanish tarixi

3-mavzu. Nizo, uning mazmuni va turlari.

Nizoning to'rt turlari; nizolar oldini oluvchi xabarlar; nizolarni hal qilishga yondashishlar; V.M.Afankovning nizo haqidagi fikrlari; nizolarning sub'yektiv hususiyatlari va pedagogik-psixologik asoslari; nizoli vaziyatning ob'yektiv mazmuni; pedagogik-psixologik konfliktologiyani nazariy tahlil qilishdagi dastlabki xulosalar; nizoli vaziyat ishtirokchilarining turli himoyalani shakllari; nizoning rivojlanishi borasidagi bosqichlari haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish.

Konflikt signallari konfliktning to'la namoyon bo'lishidan oldin tomonlar o'rtasidagi odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayirlik, ayirmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Konflikt signallariga bee'tiborlilik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, konflikt signallarini bilish va ularga e'tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo'ylik, intsidentlar, diskomfort kiradi va ular haqida ma'lumot berish.

4-mavzu. Agressiya va zo'ravonlik haqida tushuncha. Uning mohiyati.

Agressiya va zo'ravonlik o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o'sib borishi va to'planishi oqibati sifatida zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya "hujum qilish" ma'nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug'ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o'z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

5-mavzu. Konfliktli vaziyatda g'azab va qahr.

G'azab, jahl, qahr kabi psixologik holatlar aynan konfliktli vaziyatlarda ko'plab vujudga kelishi uchun katta imkon bo'ladi. Tomonlar to'qnashuvining psixologik-ruhiy natijasi, o'zga tomonga nisbatan qo'qqis shakllangan his-tuyg'u, o'zini muhofaza qilish yoki o'zga odamga bosim va tazyiq o'tkazish usuli sifatida g'azab, jahl, qahr konflikt vaziyatlarning odatdagi hamrohi ekanligi haqida m'lumot berish.

6-mavzu. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarning o'ziga xos xususiyatlari.

Ta'lim va tarbiya ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lganligi

sababli o'quvchi va o'qituvchilar orasida ayrim kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi. Kelishmovchiliklarning oldi olinmasa nizoga aylanadi. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish ko'pchilik pedagog va psixolog tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nizolarni, ya'ni konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olish yo'llari.

3-Modul. Konfliktlar va ularni bartaraf etish yo'llari.

7-mavzu. Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli.

Oiladagi tarbiya; oiladagi tarbiyaning funktsiyalari; oiladagi noto'g'ri tarbiyaning asosiy turlari; oilada bola xulqining buzilishi, ota-onaning noto'g'ri tarbiyasining natijasi; oiladagi tarbiya jarayoining pedagogik konfliktologiya bilan aloqasi haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.

8-mavzu. Jamoadagi konflikt va uni yechimga olib kelish yo'llari.

Jamoadagi mos kelishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning asosiy guruhlari; hodimlarning janjalkashliklariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik hususiyat turlari; nizolar sabablari; nizolarni hal qilish usullari; direktorlarning o'z ilmiy mudirlari bilan nizolarga borish hollari; o'qituvchi o'rtasida, guruh ichida, shaxslararo nizolarning oldini olish yo'llari borasidagi bilimlarni kengaytirish.

9-mavzu. Pedagogik konfliktologiyada tana zaboni.

Tana zaboni – sizning qanday yurishingiz, turishingiz, qanday ovozda so'zlashishingiz, qanday kiyinishingiz, sizning imo-ishoralaringiz, mimikangiz, umuman olganda, qandaydir ma'noga ega bo'lgan hamda axborot tarqatish va qabul qilishda ishtirok etgan tana harakatlaringiz majmuasi ekanligi haqida ma'lumot berish.

10-mavzu. Muomala madaniyati va to'g'ri muloqot qoidalari.

Muomala madaniyati – o'zga insonga bo'lgan munosabat madaniyati bilan belgilanishi. Ichki madaniyatga ega bo'lgan odamgina har turli vaziyatlarda har qanday boshqa insonga nisbatan doimiy to'g'ri, samimiy va aniq munosabat ko'rsata oladi. Muloqot madaniyati insondan boshqa insonga nisbatan har doim bir tekis munosabat ko'rsatilishini talab etadi. Muloqot madaniyati insondan o'z ustida muntazam ish olib borishni talab etishi va muloqot madaniyati o'z-o'zidan vujudga kelib qolmasligi haqida ma'lumot berish.

Konflikt yechimida boshqa bir insonni eshitish hamda o'z fikrini o'tkazishni tenglik sharoitida olib borish muhim talablardan biriga aylanadi. Konflikt yechimida o'zgani eshitish va o'zini anglatish qonuniyatlariga rioya etish yo'llari.

11-mavzu. Konfliktlarni boshqarish tartiblari va usullari.

Konflikt yechimini topish uchun konfliktni boshqarishning o'ziga xos usullarini egallash. Konfliktlarni boshqarish haqida ma'lumotlarni bilish va

ularni qo'llay olish. Konfliktologiyada konfliktlarni boshqarish usullari. Konfliktlarni boshqarishning besh asosiy usuli haqida ma'lumot berish.

12-mavzu. Konfliktlarni bartaraf etishda "Men-tasdiqlar" (Men-murojaat) usuli.

Konfliktli vaziyat yuzaga kelgan emotsional tang holatdan, ko'pchilik, aybni boshqalarga yuklash, "ular meni tushunmadi" qabilida ish tutish, o'zgalar so'zlari va harakatlariga osilish, kek saqlash, o'zini oqlash kabi amallar orqali chiqishga urinadi. Juda ko'p hollarda kichkina, oddiygina konflikt ham eng yaqin bo'lgan do'stlarni, hamkasblarni shu bilan bir qatorda oiladagi yaqinlarni bir-biriga qarshi qilib qo'yadi.

13-mavzu. Konfliktida "G'olib-G'olib" strategiyasi va uning amal qilish tamoyillari.

Konfliktlar yechimida aynan mana shunday yo'l ishlab chiqilgan, ya'ni ziddiyatli vaziyatdagi har ikki tomon ham o'zini g'olib, - deb anglashi mumkinligi konfliktlar yechimining o'ziga xos yutuqlaridan hisoblanadi. Konfliktli vaziyatlarda tomonlar qarama-qarshiligi natijasida har ikki tomon yutib chiqishi, bir tomon yutib chiqishi yoki har ikki tomon ham yutqazishi mumkin. Demak, ziddiyatning qanday yechim topganligiga qarab, tomonlar vaziyatlari turlicha bo'lishi mumkin.

14-mavzu. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari.

«Adolatparvarlik mezonlari» bizga qo'l keladi hamda konfliktni zo'ravonliksiz va kuch ishlatmasdan muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadi. «Adolatparvarlik mezonlarini» qo'llash, hech kim mag'lub emasligini, balki barcha g'olib bo'lib qolishini isbotlaydi. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlaridan sanalgan - e'tiborni muammoga qarata olish, muammoda shaxslarni ayblamaslik, muammoni aniqlash, muammo mazmunida fikrni jamlash, shaxsga emas, muammoga xujum qilish, o'zgani tinglashga tayyorlik va faol tinglash malakalarini qo'llash, birovning xis-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish, o'z va'dalari va amallariga mas'uliyatli bo'lish kabi qoidalariga rioya etish.

15-mavzu. Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi va mediatsiya qoidalari.

Dunyoviy davlatchilik asoslarining bosh tamoyillaridan biri tolerantlik hisoblanadi. Shu bois XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning barchasining o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va o'zaro hurmat asosida yashash jarayonlarini anglatadi.

Mediatsiya - vositachilikning asosiy qoidalari. Mediatsiya (vositachilikning) besh asosiy ustunliklari haqida ma'lumot berish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlarda magistrlarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.

“Konfliktologiya va konfliktlarni boshqarish” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogik konfliktologiyaning mohiyati, obyekti, predmeti, maqsadi, vazifalari va fan sifatida paydo bo'lishi.
2. Konflikt inson hayotining ajralmas tarkibi sifatida: konfliktogenlar.
3. Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning hislatlari.
4. Konfliktli vaziyatda agressiya va zo'ravonlik.
5. O'quvchilar va tengdoshlar orasidagi konfliktlar.
6. Ta'lim muassasasi rahbar xodimlar va o'qituvchilar o'rtasidagi konfliktlar.
7. Muomala madaniyati va muloqot qoidalari.
8. Konfliktli vaziyatlarni hal etishda oilaning roli.
9. O'quvchilarga pedagogik-psixologik xizmat ko'rsatish orqali o'quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirish.
10. Dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'quvchilarga nisbatan konstruktiv yondoshuv va uni loyihalash.
11. Pedagogik konfliktlarni bartaraf etishda pedagogik hamkorlik.
12. Pedagogik nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish usullari.
13. Ziddiyatlar yechimida adolatparvarlik mezonlari.
14. Pedagogik konfliktologiyada tolerantlik tushunchasi.
15. Pedagogik konfliktologiyada mediatsiya.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
- Internet tarmog'idan axborotlar izlash va tahlil etish.

“Konfliktologiya va konfliktlarni boshqarish” fani bo'yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

	1. Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalarini o'rganish hamda tahlil etish. 2. O'qituvchi va o'quvchilarning pedagogik hamkorligi – pedagogik konfliktlarni hal etish shakllaridan biri. 3. Pedagogik qarama-qarshilik – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirish manbai sifatida. 4. «Bolalar kulgusi» kinojurnali mazmunini tahlil etish. 5. Pedagogik konfliktlarning asosiy manbalari (o'qituvchi va o'quvchilarning kundalik hayotini kuzatish asosida). 6. O'z guruhida konfliktli-stressli vaziyatlarni tahlil etish. 7. Ijtimoiy-psixologik trening–konfliktli xulq-atvorni korrektsiyalash metodi sifatida. 8. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi konfliktli vaziyatlar profilaktikasi. 9. Pedagogik konflikt evolyutsiyasi muammosi. 10. Vaziyatni noto'g'ri idrok etish va uning oqibatlar. 11. Qiyin vaziyatga nisbatan subyektiv munosabat va uning mohiyati. 12. Pedagogik jamoa strukturasi. 13. Pedagogik konfliktning yechimi va uni boshqarish texnologiyasi. 14. Pedagogik konfliktning rivojlanish bosqichlari. 15. Shaxslararo konfliktlarni boshqarish sohasi va strategiyasining birligi. 16. Pedagogik faoliyatda muammoli vaziyatlar. 17. O'quvchilar orasidagi konfliktli vaziyatlar. 18. Pedagogik muloqotning konfliktogenligi profilaktikasi. 19. Pedagogik takt. 20. Ta'limiy hamkorlik - pedagogik konfliktni yechishning samarali shakli. 21. Majburlamagan holda o'qitish. 22. Hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat. 23. Bolaning bo'sh vaqti. 24. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kamchiliklarini bartaraf etishi uchun psixologik testlar. 25. O'qituvchining ma'naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati 26. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. 27. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash muammolari. 28. Tashxislash o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlashdagi roli. 29. Hozirgi kunda barkamol shaxsni tarbiyalashda pedagogik konfliktologiya fanining ahamiyati. 30. O'qituvchining o'z ustida ishlashi va kamchiliklarini bartaraf etishda psixologik testlarning roli haqida.
--	--

3.	V. Fanni o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Magistrant: - Konfliktologiya va konfliktlarni boshqarishning mohiyati, ob'yekt va predmeti; - "pedagogik konflikt" tushunchasi, pedagogik konfliktlarning tuzilishi; - pedagogik konfliktlarning rivojlanish darajalari va bosqichlari; - pedagogik konfliktlarning yuzaga kelish omillari; - pedagogik konfliktlarni hal etishning o'ziga xosliklari; - pedagogik konfliktlarni hal etish sharti va omillari; - pedagogik konfliktlarni hal etish yo'llari va usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - pedagogik konfliktlarning tuzilishi va chegarasini tahlil etishni; - pedagogik konfliktlarning yuzaga kelishini bashorat qila olishni; - pedagogik konfliktlarni turlarga ajrata olishni; - pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning turli shakl, metod va usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlay olish; - pedagogik konfliktlarni yuzaga kelishi va bartaraf etishga doir yengil tadqiqotlar o'tkazish, ishga ijodiy yondashish; - pedagogik konfliktlarni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. - pedagogik muammolarni aniqlash; pedagogik muammolarni tahlil etish; pedagogik muammolarni hal etish yo'llarini izlab topish; pedagogikaga doir yangiliklarni o'zlashtirish; pedagogikaga doir yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish malakalariga ega bo'lishi lozim; - motivatsion-kognitiv; - informatsion; - kommunikativ; - g'oyaviy-mafkuraviy; - fuqarolikka doir; - ma'naviy-axloqiy; - akmeologik; - aksiologik kompetensiyalarni o'zlashtirishi lozim.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi; • modulli ta'lim texnologiyasi; • muammoli ta'lim texnologiyasi; • kooperativ ta'lim texnologiyasi; • refleksiv ta'lim texnologiyasi; • art-texnologiyalar; • veb-kvest; • chizma-tasviriy modellar (mantiqiy graf, freym modeli, tayanch

	konspekt, semantik tarmoq, intellekt karta).
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: • ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o’quv konferentsiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; • joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish; • mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; • yakuniy nazorat topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 4. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent. 5. Mahmudov N. M. O’qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 6. Ochilov M., Ochilova N. O’qituvchi odobi. Saylanma. –T.: O’qituvchi,1997. 7. Ro’ziyeva D.I., Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019. 8. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: Sano-standart, 2017. 9. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Darslik. Iqtisod-moliya, 2011. -420 b. 10. Xolmatova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – T.: Artpress, 2023 y. 11. Yuldashev O’., Abdurashidov A. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019 y. 12. Ахмедова М.Т.Педагогик конфликтология.-Т.:Адабиёт учкунлари, 2017.-320 б. Qo’shimcha adabiyotlar: 13. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg’ulotlari. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013. 14. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. 15. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: Istiqlol, 2003. 16. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008. Ахборот манбалари 17. https://gov.uz/oz/edu/ 18. https://www.search.uz/catalog/site-3557.htm 19. https://ziyonet.uz/ru 20. http://www.uzedu.uz/uz
7.	Qo’qon davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi avgustdagi 1-sonli qarori bilan

	tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sul : G.A.Ismoilova – Qo‘qon DPI “Pedagogika va ta’lim menejmenti” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD).
9.	Taqrizchilar: N.Sh.Erkaboyeva - Qo‘qonDPI “Pedagogika va ta’lim menejmenti” kafedrasi professori, p.f.d. K.B.Muxammadiyev - Toshkent davlat transport universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori, p.f.d.